



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **ARABCHA-O‘ZBEKCHA TARJIMA LUG‘ATLARINING TRANSKRIPSION XUSUSIYATLARI**

**Yunusxon Rahmatullayev**

Namangan davlat universiteti, katta o‘qituvchi

**Rayhonoy G‘oyibboyeva Ahmadjonovna**

Namangan davlat universiteti, katta o‘qituvchi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada arab tilida shu tilga xos bo‘lgan harflarni boshqa tillarda xususan o‘zbek tilida o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun qabul qilingan transkripsion belgilarni fonetik va morfologik moslashuv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda arab tilida mavjud biroq boshqa tillarda mavjud bo‘lmagan tovushlarni transkripsiya orqali ifodalanishi misollar asosida yoritiladi. Transkripsiya orqali so‘zlarning yozilishi va talaffuzidagi o‘zgarishlar tilning ichki qonuniyatlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari arab tilining leksik boyishini va transkripsion birliklarning til tizimidagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** transkripsiya, arab tiliga xos tovushlar, arab tili, fonetik moslashuv, morfologik moslashuv, terminologiya.

## **ТРАНСКРИПЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ АРАБСКО-УЗБЕКСКИХ ПЕРЕВОДНЫХ СЛОВАРЕЙ**

**Юнусхон Рахматуллаев**

Наманганский государственный университет, старший преподаватель

**Райхоной Гойиббоева Ахмаджонова**

Наманганский государственный университет, старший преподаватель

### **Аннотация**

В данной статье анализируются особенности фонетической и морфологической адаптации символов транскрипции, принятых с целью сделать характерные для этого языка буквы в других языках, особенно в узбекском, понятными читателю. В исследовании на примерах выделено выражение звуков, которые присутствуют в арабском языке, но отсутствуют в других языках, посредством транскрипции. Посредством транскрипции рассматриваются изменения в написании и произношении слов в связи с внутренними законами языка. Результаты исследования служат определению лексического обогащения арабского языка и места транскрипционных единиц в языковой системе.

**Ключевые слова:** транскрипция, арабские звуки, арабский язык, фонетическая адаптация, морфологическая адаптация, терминология.

## **TRANSCRIPTIONAL FEATURES OF ARABIC-UZBEK TRANSLATION DICTIONARIES**

**Yunuskhon Rakhmatullayev**

Namangan State University, Senior Lecturer

**Rayhonoy Goyibboyeva Ahmadjonovna**

Namangan State University, Senior Lecturer

### **Abstract**

This article analyzes the phonetic and morphological adaptation features of the transcription symbols adopted in order to make the letters characteristic of this language in other

languages, especially in Uzbek, understandable to the reader. In the study, the expression of sounds that are present in Arabic but not in other languages through transcription is highlighted based on examples. Through transcription, changes in the spelling and pronunciation of words are considered in connection with the internal laws of the language. The results of the research serve to determine the lexical enrichment of the Arabic language and the place of transcription units in the language system.

**Keywords:** transcription, Arabic sounds, Arabic language, phonetic adaptation, morphological adaptation, terminology.

Arab yozuvi asrlar davomida Markaziy Osiyo hududida ilm-fan, adabiyot va diniy manbalar tili sifatida qoʻllanib kelgan. Oʻzbek xalqi ham uzoq vaqt arab alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalangan. Bugungi kunda oʻzbek tili lotin yozuviga oʻtgan boʻlsa-da, arabcha soʻzlar, Qurʼon oyatlari, hadislar, tarixiy manbalar va islomiy atamalarni toʻgʻri oʻqish hamda yozishda transkripsiya tizimi muhim ahamiyatga ega.

Arab tili dunyoda keng tarqalgan qadimiy tillardan biri boʻlib, oʻzbek tili bilan tarixiy, madaniy va diniy jihatdan chuqur aloqada boʻlib kelgan. Bu aloqalar natijasida arab tilidan oʻzbek tiliga koʻplab soʻzlar kirib kelib, tilimizga mustahkam oʻrnashib, oʻz oʻrnini egallab boʻldi. Bu soʻzlarsiz endilikda tilimiz rivojini tasavvur qilib boʻlmaydi. Bunday soʻzlarning asl kelib chiqishini bilmagan kishi bunday soʻzlar asli arabcha ekanligini bilmasligi ham mumkin. Chunki bunday soʻzlar kundalik hayotda juda koʻp isteʼmol qilinganidan, bular boshqa tildan oʻzlashgan degan fikr xayolga ham kelmasligi aniq. Bunday ayrim soʻzlarni arabcha–oʻzbekcha tarjima lugʻatlarida arab soʻzlarini oʻzbek oʻquvchisiga toʻgʻri va tushunarli qilib yetkazishda transkripsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Transkripsiya tushunchasi**

Transkripsiya — bu bir tildagi soʻzlarni boshqa til alifbosi vositasida talaffuzga yaqin holda ifodalashdir. Arab tilidagi ayrim tovushlar tizimi oʻzbek tilidagi ekvivalentidan farq qilgani sababli, arab soʻzlarini oʻzbek alifbosida ifodalash jarayonida muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bunday soʻzlarni notoʻgʻri talaffuz qilish natijasida soʻzning maʼnosi butunlay oʻzgarib ketishi mumkin. Oʻzbek tilida unli tovushlarni qisqa talaffuz qilinsa ham yoki choʻzibroq talaffuz qilinsa ham, maʼnoga taʼsir etmaydi. Arab tilida esa maʼno butunlay oʻzgarib ketadi.

Masalan: درى - darā bilmoq [3; 210-b.] maʼnosini anglatsa, دار - dāra aylanmoq [3; 223-b.] maʼnosini bildiradi. Bu soʻzlarni ikkalasi oʻzbek tilida bir xil talaffuz boʻlishi mumkin.

جمال jamāl – tuya [3; 112-b.] soʻzini anglatsa, جمال jamāl – goʻzallik, jamol [3; 112-b.] maʼnolarida ishlatiladi.

#### **Arab va oʻzbek tillari fonetik farqlari**

Arab tilida oʻzbek tilida mavjud boʻlmagan quyidagi tovushlar mavjud:

halqum tovushlari (ح va ع). ح “h” undosh tovushi hosil boʻlish oʻrniga koʻra halqum oʻrta tovushi, hosil boʻlish usuliga koʻra sirgʻaluvchi, ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra jarangsiz tovushdir. Bu harf ishtirokida arab tilidan oʻzbek tiliga quyidagi soʻzlar oʻzlashgan: محبوب - maḥbubun-maḥbub, محكمة - maḥkamatun-maḥkama, حركة - ḥarakatun-harakat, حرية - ḥurriyatun-hurriyat va boshqa soʻzlar.

ع “ʻ” Bu tovush hosil boʻlish oʻrniga koʻra halqum oʻrta tovushi, hosil boʻlish usuliga koʻra portlovchi, ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra jarangli tovushdir. Bu tovush talaffuzi davomida chuqur boʻgʻiz devorlari bir-biriga tegadi va oʻpkadan kelayotgan havo shu yerda portlab oʻtadi. Bu harf ishtirokida arab tilidan oʻzbek tiliga quyidagi soʻzlar oʻzlashgan: معنى - maʼnā - maʼno, معلوم - maʼlūmun - maʼlum, اعتبار - eʼtibār - eʼtibor, اعتقاد - eʼtiqādun - eʼtiqod va boshqalar. ح “h” va ع “ʻ” tovushlarining talaffuzi ancha qiyindir.

Emfatik, yaʼni kuchli zarb bilan talaffuz qilinadigan tovushlar (ظ ط ض ص).

Oʻzbek tilida bu tovushlarni toʻliq ifodalovchi harflar yoʻq. Shuning uchun zamonaviy lugʻatlarda transkripsiya vositasida ifodalanganida shartli belgilar yoki shu tovushlarga talaffuzda

yaqin keladigan tovushlardan foydalaniladi. Masalan, ط tovushini t. belgisi orqali: طالب - t.ālībun - tolib, طاهر - t.āhirun - tohir, طبيب - t.abībun - tabib, طهارة - t.ahāratun-tahorat va boshqalar.

ظ tovushini z. belgisi orqali: مظفر – muz.affarun - muzaffar, ظريفة – z.arīfatun-zarifa, مظلوم - ma z.lūmun - mazlum, ظالم - z.ālīmun - zolim va boshqalar.

ص tovushini s. belgisi orqali: صادق - s.ādīqun - sodiq, صباحة - s.abāhatun - sabohat, صاحبة - s.āhibatun - sohiba, صلح - s.ulḥun - sulh va boshqalar.

ض tovushini d. belgisi orqali: ضرر - d.ararun - zarar, ضرورية – d.aruriyat, حاضر - hād.irun - hozir, حضرة - had.ratun - hazrat va boshqalar.

### Arabcha–o‘zbekcha lug‘atlarda transkripsiya usullari

Arabcha–o‘zbekcha tarjima lug‘atlarida quyidagi transkripsion xususiyatlar kuzatiladi:

“ث” s harfi til uchi-yuqori va pastki tishlar orasi, sirg‘aluvchi, jarangsiz tovushni anglatadi. O‘zbek tilida bunday tovush yo‘q.

ثابت - sābitun - sobit, تأثير - ta’sīrun – ta’sir, ثرور - sarvarun – sarvar, وارث - vārisun - voris va boshqalar.

“ذ” z harfi til uchi yuqori va pastki tishlar orasi, sirg‘aluvchi, jarangli tovushni bildiradi. “ث” tovushidan faqat jarangliligi bilan farq qiladi. O‘zbek tilida bunday tovush yo‘q.

ذاكر - zākirun - zokir, مذکور - mazkūrun - mazkur, مذهب - mazhabun - mazhab, ذهن - zihnun - zehn va boshqalar.

Endi unli tovushlarning ifodalanishiga to‘xtalib o‘taylik.

Arab tilida unlilar qisqa va cho‘ziq bo‘ladi. Lug‘atlarda bu holat quyidagicha beriladi:

– Fatha )) – qisqa a unlisi: طَلَبَةٌ - t.alabatun - talabalar, قَسَمٌ - qasamun - qasam.

– Kasra )) – qisqa i unlisi: ذِكْرٌ - zikrun - eslash, جِسْمٌ - jismun - jism.

– Damma )) – qisqa u unlisi: حُكْمٌ - ḥukmun - hukm, صُبْحٌ - s.ubḥun - tong.

– Sukun (◌) – yopiq bo‘g‘in, to‘xtalish: مَكْتُوبٌ - maktūbun - xat, مَشْرَبٌ - mashrabun - mashrab.

– Shadda (◌◌) – ketma-ket kelgan ikki bir xil undoshni ikkilantirib talaffuz qilish: مُحَبَّةٌ - muḥabbatun - muhabbat, تَصَوُّرٌ - tas.avvurun - tasavvur.

Ilmiy transkripsiyada cho‘ziq unlilar odatda quyidagicha belgilanadi:

• ā (alif) ا harfi yordamida: كتاب - kitābun – kitob, جابر - jābirun – jobir

• ī (ya) ي harfi yordamida: فيل - filun – fil, جميلة - jamīlatun – jamila

• ū (vov) و harfi yordamida: نور - nūrun – nur, مغلوب - mag‘lūbun – mag‘lub.

Qur‘on so‘zi arabchada القرآن alqur‘ānu shaklida yoziladi va o‘zbekcha transkripsiyada Qur‘on tarzida beriladi. Diakritik, ya‘ni harakatlar deb ataluvchi belgilarning qo‘llanilishi cheklangan. Ko‘p lug‘atlarda arab tiliga xos harakatlar (fatha - ◌, kasra - ◌, damma - ◌) to‘liq berilmaydi, balki o‘zbekcha o‘qishga moslashtiriladi. Lekin hozir nashr qilinayotgan zamonaviy katta lug‘atlarda bu qisqa unli larni ifodalovchi diakritik belgilar to‘liq qo‘yilgan holda nashr qilinmoqda. Masalan: تَرْجَمَةٌ - tarjamatun - tarjima, سَتَشْرِيقٌ - mustashriqun – sharqshunos.

### Transkripsiyaning ahamiyati

Arab tili dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biri hisoblanadi. U nafaqat arab mamlakatlarida, balki butun dunyoda, ayniqsa islom madaniyati bilan bog‘liq holda keng qo‘llaniladi. Arab tilini o‘rganish jarayonida muhim vositalardan biri bu — transkripsiyadir. Transkripsiya arab tilidagi so‘z va iboralarni boshqa alifbolarda, xususan, lotin yoki kirill yozuvi orqali to‘g‘ri talaffuzini ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli transkripsiya arab tilini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

### Transkripsiya tushunchasi

Transkripsiya — bu bir tildagi so‘zlarning talaffuzini boshqa yozuv tizimi yordamida aniq ifodalash usulidir. Arab tilida ko‘plab tovushlar boshqa tillarda mavjud emas. Shuning uchun arab so‘zlarining haqiqiy talaffuzini saqlab qolish uchun transkripsiyadan foydalanish muhim hisoblanadi.

### Arab tilini o‘rganishda transkripsiyaning roli

Arab tilini yangi o‘rganayotgan talabalar uchun transkripsiya katta yordam beradi.

Birinchidan, u soʻzlarning toʻgʻri talaffuzini oʻrganishga imkon yaratadi. Ikkinchidan, arab alifbosini hali yaxshi bilmaydigan oʻquvchilar ham transkripsiya orqali soʻzlarni oʻqish va tushunish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Bundan tashqari, transkripsiya orqali arab tilidagi ayrim qiyin tovushlar — masalan, “ع”, “ص”, “ض”, “ظ”, “ث”, “ذ”, “ط” kabi harflarning talaffuzini yaxshiroq anglash mumkin. Bu esa tilni toʻgʻri va ravon oʻrganishga yordam beradi.

#### **Ilmiy va taʼlimiy ahamiyati**

Transkripsiya nafaqat oʻquv jarayonida, balki ilmiy tadqiqotlarda ham muhim ahamiyatga ega. Lingvistlar va tilshunoslar turli tillarni qiyosiy oʻrganishda transkripsiyadan foydalanadilar. Bu orqali turli tillardagi tovush tizimlarini solishtirish va tahlil qilish osonlashadi. Shuningdek, lugʻatlar, darsliklar va til oʻrganish qoʻllanmalarini tayyorlashda ham transkripsiya keng qoʻllaniladi. U oʻquvchilarga yangi soʻzlarni tezroq va toʻgʻriroq oʻzlashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, transkripsiya arab tilini oʻrganishda muhim va zarur vositalardan biri hisoblanadi. U soʻzlarning toʻgʻri talaffuzini oʻrganishga yordam beradi, oʻquv jarayonini yengillashtiradi va ilmiy tadqiqotlarda ham katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun arab tilini samarali oʻrganishda transkripsiyadan toʻgʻri va maqsadli foydalanish muhimdir. Arabcha–oʻzbekcha lugʻatlarda toʻgʻri transkripsiya:

- a) soʻzning toʻgʻri talaffuzini taʼminlaydi va maʼno oʻzgarishiga yoʻl qoʻymaydi;
- b) oʻrganuvchilar uchun arab tilini oʻzlashtirishni osonlashtiradi;
- c) maʼnoni notoʻgʻri tushunish imkonini bermaydi.

Notoʻgʻri yoki nomukammal transkripsiya esa soʻz maʼnosining buzilishiga sabab boʻlishi mumkin. Arabcha–oʻzbekcha tarjima lugʻatlarida transkripsiya muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Arab va oʻzbek tillarining fonetik farqlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan transkripsion tizim lugʻat sifati va foydalanish samaradorligini oshiradi. Shu bois, zamonaviy lugʻatlarda yagona va ilmiy asoslangan transkripsiya meʼyorlariga amal qilish muhim hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Баранов Х. К.Арабско-русский словарь. – М., 1985.
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2004. – T. 1.
3. Nosirov O., Yusupov M. va boshq. An-Naʼim al-Kabir arabcha–oʻzbekcha lugʻati. – T., 2021.
4. Qoʻziyev U. Soʻz oʻzlashtirishning morfologik aspekti.
5. Шарбатов Г. III. Русско-арабский учебный словарь. – М., 1979.